

**MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA
DIQQAT JARAYONINING RIVOJLANISHI**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Pedagogika fakulteti talabasi

Abdurahmonova Umida Abduvohid qizi

Ilmiy rahbar: TAFU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi

qurbonovasurayyo5@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat mahsuldorligining rivojlanishi maktabga tayyorgarlikning asosi hisoblanadi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatining o'ziga xosligi hamda bolalar diqqatini rivojlantirish usullari to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borgan psixolog olimlarni tadqiqotlari va ushbu tadqiqot natijalarining tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh davri, katta maktabgacha yosh davri, bilish jarayonlari, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida: "Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi." Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Maktabgacha talim tashkilotida tarbiyalangan bola bilan maktabgacha talim tashkilotiga bormagan bolaning tafovutida, ularning fikrlash darajasi o'rtasida katta farq borligini sezish qiyin emas. "Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish

masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o‘ylab amalga oshirmasak, butun ta’lim tizimida sifat o‘zgarishiga erishishimiz, ta’limning uzluksizligini ta’minlashimiz qiyin bo‘ladi”, deya ta’kidladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog‘chadagi sharoitgagina emas, balki ko‘p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog‘liqdir. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir xil darajada rivojlanmaydi. Ayrim bolalar oilada tegishli nazorat ostida bo‘lmashligi yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborilganligi sababli o‘zlarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlarini tartibga sololmaydilar. Bunday bolalar hamma narsalarga ruxsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinib-tinchib o‘tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara bilmaslik, ya’ni ma’lum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik mashg‘ulotlarda intizomni buzish va boshqalarga xalaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar va muassasa psixologlari bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishlari (har xil mas’ulyatli topshiriqlar berish va hokazo), ularda diqqatning kuchini har onda barqarorlik xususiyatini tarbiyalab borishlari zarur. Bog‘cha yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko‘lami (hajmi) ham ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami katta odamlarnikiga nisbatan hali ham juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘dira olsa, bog‘cha yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtda 1-2 narsanigina (kichik guruh bolalari 1 ta, o‘rta va katta guruh bolalari 2 ta) sig‘dira oladi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi tezroq rivojlanadi. Lekin bolaning bog‘cha yoshida faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg‘ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki maktabdagi ta’lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam xam siljiy olmaydi, shuning uchun bog‘chada turli majburiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy

xususiyatlarini rivojlantirishga xarakat qilishi kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bog'cha yoshidagi davrda bolaning ixtiyoriy diqqatini rivojlantirish uchun psixologik o'yin va mashg'ulotlar katta ahamiyatga egadir. Mashq qilish usuli bilan o'z diqqatini to'plash qobiliyati asta-sekin rivojlanadi. O'quv jarayonida ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat mahsuldorligining rivojlanishi maktabga tayyorgarligining asosi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida bolalarni maktabga tanlab olish masalasi hamma joylarda ham maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilmoqda deb bo'lmaydi. Bu o'z navbatida, respublikamizdagi psixodiagnostik tanlov ishlari an'analarning hali yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, zarur bo'lgan me'yoriy ko'rsatkichlarning ishlab chiqilmaganligi kabi turkum obyektiv va subyektiv omillarga bog'liqdir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligidagi eng asosiy masala bola shaxsidagi diqqatning rivojlanganligiga bog'liqdir. Ko'rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonining asosi diqqatning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu muammo ko'p qirrali bo'lib, uni o'rganish psixologik va fiziologik jihatdan keng tarmoqda tadqiq qilishni taqozo etadi. Aynan shu ma'noda, biz maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda diqqat mahsuldorligini rivojlanishda milliy xalq o'yinlari va psixologik rivojlantiruvchi mashg'ulotlarning ta'sirini maktabga tayyorgarlikning sharti sifatida tadqiq etish hamda ulardan tegishli ilmiy, asosli xulosalar chiqarib, keng jamoatchilikka targ'ib qilishni dolzarb muammo deb bildik. Ixtiyorsiz diqqat maktabgacha yoshdagi bolalik davrida ustunlik qiladi. Shu sababli, bolalar kamdan-kam hollarda uzoq vaqt davomida bir xil ishni qilishadi. Maktabgacha yoshdagi barcha davrlarda bolalar faoliyatining murakkablashishi tufayli diqqat yanada yo'naltirilgan va barqaror bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatning rivojlanishi, umuman olganda ushbu yoshdagi bolalarda diqqatning o'rnini haqida olimlar tomonidan talaygina ishlar olib borilgan. Misol uchun K.D.Ushinskiyning aytishicha, ixtiyorsiz diqqat tashqi va ichki sabablarga ko'ra hosil bo'ladi. Tashqi sabablar qo'zg'atuvchining kuchiga organizmning ayni

vaqtdagi holatiga bogʻliq. Diqqatning psixologik tahlilini K.D.Ushinskiy tarbiya muammosi bilan bogʻlab, diqqatni boshqara bilishni aqliy rivojlanish va amaliy faoliyat uchun asosiy omil deb hisoblaydi. Diqqatning maqsadga muvofiq boshqarish yoki idrok qilish paytida asosiy ishdan tashqaridagilarga chalgʻimaslik tushuniladi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning faol diqqatini toʻgʻri yoʻnalishda koʻrish va ularning diqqatini oʻzlari boshqarishga oʻrgatishdan iboratdir. L.S.Vigotskiy psixik funksiyalar rivojlanishini oʻrgana borib, ular ichiga ixtiyoriy diqqatni ham kiritadi. Uning fikricha, bola diqqatining tarixi - bu bola xulqining paydo boʻlishi tarixidir. L.S.Vigotskiy ishlarining xarakterli tomoni kishi psixikasini tushunishda tarixiy va genetik yondashishdir. Buni u diqqatni oʻrganishga ham tadbiq qilgan va diqqatning rivojlanishini koʻrsata olgan. Uzoq vaqt A.N.Leontev maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini tekshiradi. Chunonchi, idrok bilan diqqat jarayonining aloqasini oʻrgandi. “Diqqat hodisasi shunday hodisaki, u idrokning qanday kechishi bilan belgilanadi,” - deb tushuntirdi. Bu yoshda birinchi marta ular oʻzlarining eʼtiborlarini boshqarishni boshlaydilar, ongli ravishda baʼzi bir narsalarga, hodisalarga yoʻnaltiradilar, ular eslab qolish uchun baʼzi vositalardan foydalanadilar. Katta maktabgacha yoshdan boshlab, bolalar oʻzlarini intellektual jihatdan muhim qiziqishlarga ega boʻlgan harakatlarga (jumboq oʻyinlari, topishmoqlar, oʻquv-tarbiyaviy vazifalar) eʼtiborini qarata oladilar. Yetti yoshga qadar intellektual faoliyatda diqqat barqarorligi sezilarli darajada oshadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar eʼtiborining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- qisqa konsentratsiya, qisqa vaqt ichida sezilarli tebranishlarga moyilligi, bolalar bir necha marotaba faoliyatning bir turidan ikkinchisiga oʻtishadi, rejalarini bir necha bor oʻzgartiradilar;

- tashqi taʼsirlarga rioya qilish, hatto ozgina begona stimuly ham bolaning eʼtiborini faoliyatdan chalgʻitadi;

- mashg'ulot turiga qarab, 4 yoshli bolalar qiziq ertakni diqqat bilan tinglashlari yoki 20 daqiqa yoki undan ko'proq vaqt davomida multfilmlarni tomosha qilishlari mumkin;
- ixtiyoriy ruhiy tartibga solish bo'lmagan taqdirda o'z xohishiga ko'ra bir obyektidan ikkinchisiga o'tish imkoniyati yo'qligi;
- bolalarning yoshiga qarab, bolalar qanchalik kichik bo'lsa, ular kattalarning so'zlariga shunchalik kam e'tibor berishlari mumkin, chunki ularning e'tiborini yorqin, jozibali narsalar ko'proq jalb qiladi (so'zlar faqat ularga hamroh bo'ladi (ularni tug'diradi)), kattalar so'zlari o'rta va kattaroq maktabgacha yoshdagi bola uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'lib, u o'zini o'zi faol ravishda ularga e'tiborini qaratadi;
- diqqatning zaif taqsimlanishi (bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq faoliyat turlarini bajara olmaslik), kichik hajm (qisqa vaqt ichida ko'plab obyektlarni o'z ichiga olmaslik).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo bo'ladigan yangi-yangi qiziqishlar, o'yin faoliyatlarining xilma-xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta-sekin takomillashtirib boradi. Bog'chada jamoa tomonidan talab etiladigan tartiblarga bo'ysunish, qoidali o'yin shartlarini so'zsiz bajarish, kattalarning topshiriqlarini chidam, qunt bilan ado etish kabi hollar bog'cha yoshidagi bolalarda diqqatning ixtiyoriy turini rivojlantiradi. Bolalarda bilish jarayonlarini rivojlantirishda psixologik rivojlantiruvchi o'yinlarning roli juda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib –intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak". O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil yakunlari va 2017- yil istiqbollari bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 16- yanvar, № 11.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy Majlisga murojatnomasi". O'zbekiston" 2017.

3. G‘oziyev E.G‘ Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil. -T.: Noshir, 2010. – 356 b.
4. Do‘stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013 – 343 b.
5. Yunusova G. S. THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN //The Way of Science. – 2014. – C. 84.
6. Yunusova, G. S. «THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN.» The Way of Science (2014): 84.